

## Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriyning nurli hayot yo‘llari

### Oltinova Yishoda Olim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Annotasiya:** Al- Buxoriyning nurli hayot yo‘llari va islom olamidagi beqiyos o‘rni.

**Kalit so‘zlar:** In‘om etilgan noyob qobiliyat, al- Buxoriyning ustozlari, ma‘rifat yo‘lidagi izlanishlari, Basra safari, al-Buxoriy hayotlarining so‘nggi kunlari.

### Kirish

IX asrda Markaziy Osiyo hududida turli din ilmlari, tabobat va al- jabr fanlarini chuqur o‘zlashtirib, ularning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqqan. Buyuk mutafakkir Abu Nasr al- Farobiy, jug‘rofiya fani olimi Muhammad ibn Nasr al- Farg‘oniy, mashhur tabib Abu Ali ibn Sino, hadis ilmining sulmoni va islom olamining yirik namoyandasi "Sahih ul- Buxoriy" kitobi muallifi Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy kabi buyuk allomalar davri edi.

810-yil 20-iyul Ko‘hna Buxoro shahri, bu kun qalblarga ajib bir hisni olib keldi. Chunki bu kunda dunyo muhaddislari imomi va hadis ilmining sulmoni bo‘lmish Muhammad ibn Ismoil dunyoga keldi. U kishining to‘liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al- Mug‘ira Al Hufiy Al- Buxoriydir. U kishi Buxoroning o‘ziga to‘q bo‘lgan tijoratchi oilada tug‘ilib, voyaga yetganlar. Akalari ismlari Ahmad bo‘lgan, otalari esa Ismoil o‘z yurtining mutafakkirlaridan bo‘lgan va tijorat bilan shug‘ullangan. Onalari oqila, taqvodor, ziyrak ayol edi. Yoshlik chog‘laridayoq otalari vafot etadi al- Buxoriyning tarbiyasi bilan yolg‘iz onasi shug‘ullanadi. Al-Buxoriy yoshlik chog‘larida taxminan 4-5 yoshlar atrofida tasodifan ko‘zlari ojiz bo‘lib qoladi. Onalari turli tabiblarga ko‘rsatadi, ammo hech qaysi tabib aniq bir sababini ayta olmaydi, ko‘zlariga qum to‘lgan, shikastlangan kabi taxminiy fikrlar bildirishadi. Onalari tun-u-kun yig‘lab duoda bo‘ladilar, shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki al- Buxoriyning onalari qo‘shnilariga qarz bergan bo‘ladilar, ayni damda pul kerak bo‘lganligi sababdan qo‘shnilaridan qarzni so‘raydilar. Bunda qo‘shnilari imkoni yo‘qligi va 1 oy muhlat berishini iltimos qilib so‘raydilar va agarda bu muhlatda qaytara olmasa boshqa birovdan qarz olib bo‘lsa ham qaytarishini aytadilar, shunda onalari bu qarzdin voz kechadilar. Shu tunning chorak qismida al- Buxoriyning onalarini tushiga Ibrohim halilulloh kirib:" Sening duolarning va qo‘shninga qilgan marhamating tufayli o‘g‘lingni ko‘z nuri qaytadi",- deyдилar va tongda al- Buxoriy ko‘ra boshlaydi.

Muhammad ibn Ismoil yoshligidan ilm- ma‘rifatga intiluvchi, ziyrak bola bo‘ldi. U kishi ayniqsa hadis ilmiga qiziqqan edilar. Yoshlik chog‘laridayoq Abdulloh ibni Muborak va Vakiy ibn Jahon hadislarini yoq oladilar. Ibn Ismoil juda kuchli zehn egasi bo‘lganlar, u kishi hadislarini bir marotaba eshitgandan yoki birinchi marotaba mutolaa qilgandayoq xotiralariga muhrlab olganlar. Buni Alloh taolo tomonidan berilgan qobiliyatdir deb bilishgan va al- Buxoriy bu qobiliyatni Alloh yo‘lida ishlatdi. Chunki u kishi butun umrini ilm olishga bag‘ishladilar. Al- Buxoriy ilk ta‘limni o‘z yurtida oladi. Ustozlari taniqli muhaddislar al- Daxily, Muhammad ibn Salom al Poykandiy, Abdulloh ibni Muhammad al Masnadiy va boshqalardan hadis ilmni o‘rganadi. Bular da shunday bir qonuniyat shaklidagi odat bo‘lganki, o‘z yurtidagi barcha taniqli muhaddislardan ilm olib bo‘lgandan so‘ng boshqa muhaddislardan ilm olishga kirishilgan. Shu sababli ham al- Buxoriy ilk ta‘limni o‘z yurtida

oladi. Al- Buxoriy 16-yoshida o'z yurtidagi barcha muhaddislardan hadislar va roviylar to'plab bo'lgach, xalifalikning turli hududlariga ilm olish ilinjida safarga chiqadilar. 825-yilda al- Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga haj ibodatini ado etadi va o'zlari bu yerda payg'ambarimiz hadislarini to'plash uchun qoladilar. Onalari va akalarini Buxoroga qaytarib yuboradilar. Makkada turli mashoyixlar ilmiy yig'inida qatnashadilar. 827-yil Madinaga boradilar. Madinadagi mashhur ulamolar Ibrohim ibn al- Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamzalardan saboq oladilar.

Al- Buxoriy hadis to'plash uchun qilgan ruhlari 6yil davom etgan shu yillar mobaynida u kishi payg'ambarimiz hadislarini to'plashda sahih va g'ayri sahihga ajratib "Sahih ul- Buxoriy" kitobini yozganlar. Bu kitob ustida 16yil ishlaganlar, 32yoshlarida tugatganlar. Kitobda 7275dan ortiq sahih hadislarini tartib bilan boblarga ajratib chiqqanlar. Bu safarlaridan so'ng al- Buxoriy o'z yurtiga qaytadilar va hadis ilmidan saboq beradilar. Shu paytda dovrug'i Buxoro amirigacha yetib boradi va o'rtalarida nizo paydo bo'ladi. Shu sababli al- Buxoriy Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'iga keladilar va umrining so'ngi kunlarigacha shu yerda bo'ladilar. Al- Buxoriy 870- yil 1-sentabrda 62 yoshida vafot etadilar.

Ismoil al- Buxoriy islom olamida ulkan iz qoldirdilar. U kishi nafaqat Alloh yo'lida hadis to'playdilar, shu bilan bir qatorda tijoratdan tushgan pulning 500 dirhami miqdorida faqir - miskinlarga yordam zakot chiqaradilar. U kishining "Sahih ul- Buxoriy" yoki " Al- jome as-sahih" asarlari muqaddas Qur'oni karimdan keyin turadigan asar hisoblanadi. Butun islomiy davlatlar tan olgan sahih kitoblar sirasining birinchi o'rnida turuvchi ishonchli manba hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz ( Imom Buxoriyning hayot sahifalari). Toshkent. Hilol Nashr 2022-yil.
2. " Imom Buxoriy ta'rifi" tarjima va izohlar muallifi Saidazim Muhammad Ali . Toshkent. Cho'lpon 1996-yil.